

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUPOETIC APPROACHES TO THE STUDY OF ARTISTIC TEXT IN UZBEK LINGUISTICS****N. Erkinova**

senior lecturer

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** linguistics, linguopoetics, art, Uzbek.**Abstract:** In this article, the topic of linguopoetic approaches to the study of literary texts in Uzbek linguistics is analyzed and discussed.**Received:** 09.03.23**Accepted:** 11.03.23**Published:** 13.03.23**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY MATN TADQIQIGA LINGVOPOETIK YONDASHUVLAR****N. Erkinova**

katta o‘qituvchi

Oriental universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, lingvopoetik, badiiy, o‘zbek.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqiga lingvopoetik yondashuvlar mavzusi tahlil va muhaka qilingan.**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ****Н. Эркинова**

старший преподаватель

Oriental университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ**Ключевые слова:** языкознание, лингвопоэтика, искусство, узбек.**Аннотация:** В данной статье анализируется и обсуждается тема лингвопоэтических подходов к изучению художественных текстов в узбекском языкознании.

KIRISH

XX asrning so'nggi choragidan boshlab dunyo tilshunosligida badiiy matn tadqiqiga yondashuvlar o'zgardi. Xususan, badiiy matnni tilshunoslik va adabiyotshunoslik aspektlarida, ularning hamkorligida o'rganuvchi lingvopoetik tadqiqotlarni amalga oshirishga qiziqish kuchaydi. Natijada til sathi birliklarining badiiy nutqda qo'llanish xususiyatlari lingvopoetik aspektda ham o'rganila boshlandi.

ASOSIY QISM

Lingvopoetika uslubiy xoslangan birliklarning badiiy matndagi estetik effektini o'rganish, ularning matn mazmuniy strukturasida badiiylikka xizmat qilish vazifasi va bu maqsad asosida qo'llanishini tahlil qiluvchi filologik yo'nalish sifatida o'tgan asr so'nggi choragidan boshlab mustaqil rivojlana boshladi. A.Nurmonov qayd etganidek, "Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir".

Darhaqiqat, badiiy asar muayyan lisoniy shaxsning ijodiy faoliyat mahsuli bo'lgan yirik hajmli hamda keng qamrovli asar bo'lganligi sababli unda lingvopoetik vazifa bajaruvchi turli-tuman birliklar uchraydi. Shunga ko'ra lingvopoetik tadqiqotlarda tilning barcha sath birliklarining poetik imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Ammo badiiy asarda qo'llangan barcha so'zlarni poetik vazifa bajaradi deb ayta olmaymiz. D.Andaniyozova to'g'ri ta'kidlaganidek, lingvopoetikada "o'zining standart vazifasidan tashqari sezilarli darajada aktuallashtirilgan til birliklariga poetik vazifa bajaruvchi vosita sifatida tahlil qilinishi kerak". Demak, badiiy matnning lingvopoetik tahlilida tadqiqotchi tilning poetik imkoniyatlarini ilg'ashda o'tkir nigohga, so'z sehrini anglay olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim o'rin tutadi.

Tilshunoslikda lingvopoetik aspektdagi tadqiqotlarni til birliklarining poetik vazifasini o'rganishga bo'lgan qiziqish natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Lingvopoetik tahlillar asosida til birliklarining badiiy nutqda yuzaga chiqadigan poetik imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratgan adiblarning lisoniy qobiliyatiga, tildan foydalanish mahoratiga haqqoniy baho beriladi. Buni inobatga olgan ko'plab tilshunoslar til birliklarining poetik xususiyati faqat va faqat badiiy matnda namoyon bo'lishini e'tirof etishadi.

Albatta, lingvopoetikada adibning badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi til birliklarining badiiylikni hosil qilishdagi o'рни, ulushini aniqlash muhim. Til birliklari tadqiqiga badiiy matn tahlili orqali yondashuv ularning poetik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. D.Andaniyozova qayd etganidek, "Chunki har qanday til birligi badiiy matnda muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda tamoman o'ziga xos poetik

qonuniyatlarni namoyon qilishi mumkin. Aslida, muayyan tilning boyligi, badiiy imkoniyatlar doirasining sarhad bilmasligi aynan badiiy matnda voqe bo‘ladi”.

Rus olimi M.S.Stepanovning fikricha, lingvopoetikada poetik diskursning yaxlit hodisa sifatida tadqiq etilishi badiiylikning tub mohiyatini aniqlashga, u bilan bog‘liq holda kommunikasiya, til va madaniyatning mavjudlik qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Ammo “badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya-fikr-mazmunni tushunish shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goh ochiq, goh yashirin turli ishoralar, tagma’nolar bilan namoyon bo‘ladigan mazmunning ma’nosini to‘g‘ri anglash ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi”.

Anglashiladiki, lingvopoetikada faqat poetik qimmatga ega til birliklari o‘rganiladi, ularning badiiylikni ta’minlashdagi roli ochib beriladi. Ushbu xulosalar tilshunoslikda badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar doimo dolzarblik kasb etishini ko‘rsatadi.

Lingvopoetika muammolari tahlil etilgan tadqiqot ishlarida lingvopoetikaning nafaqat adabiyotshunoslik bilan aloqasi, balki lingvostilistika bilan ham hamkorligi masalasi bo‘yicha turli fikrlar bildiriladi. S.Umirovaning qayd etishicha, “Tilshunoslik sohalari orasida lingvopoetika va lingvostilistika bir-biriga yaqin bo‘lganligidan lingvopoetik kuzatishlarda lingvostilistik tahlil metodlari – stilistik tajriba, semantik-stilistik, qiyosiy-stilistik va statistik-stilistik tahlil, kognitiv tahlil, poetik-kognitiv tahlil metodlaridan foydalanish lozimligi haqida fikr bildirilgan. Chunki badiiy matn lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqishda asarning g‘oyaviy mazmuniga, adabiy til va undan chekinish holatlariga, tarixiyligiga, ekstralingvistik omillarga tayanib ish ko‘riladi.” Darhaqiqat, lingvopoetikada badiiy matnda qo‘llangan til birliklarining uslubiy xususiyatlari asosida bajaradigan poetik vazifalari aniqlanib, ularning badiiylikni hosil qilishdagi roliga baho beriladi. Til birliklarining uslubiy xoslanish belgisi asosida badiiy matnda poetik xususiyat kasb etishi, bunda adibning tildan foydalanish mahorati, uning o‘ziga xos individual uslubi kabi masalalar o‘rganiladi. Shu jihatdan lingvopoetik tahlillarda stilistik yondashuvlarning kuzatilishi tabiiydir.

Dunyo tilshunosligida, xususan, turkiyshunoslikda, rus va boshqa tilshunosliklarda lingvopoetika muammolari tahlil qilingan ishlar juda ko‘p. Bu ishlarda lingvopoetik tahlil metodlari, tamoyillari belgilangan. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiq obyekti ekanligi asoslangan, turli tillardagi birliklarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, muayyan adiblar asarlarida badiiylikni ta’minlashga xizmat qilgan til birliklari aniqlanib, ularning lingvopoetik, stilistik xususiyatlari ochib berilgan. Quyida o‘zbek tilshunosligida bu muammoning o‘rganilishi ko‘lami haqida ma’lumot berib o‘tamiz.

O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab badiiy matn lingvopoetik aspektida tadqiq etila boshlandi. Keyingi yillarda bu yo‘nalishda yaratilgan dissertatsiyalar hamda

monografiyalarga nazar tashlasak, ham nazmiy, ham nasriy asarlarda qo'llanib, ijodkorning badiiy niyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi, badiiy matnda poetik vazifa bajaruvchi tilning turli sath birliklari aniqlanib, ularning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilganligiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda ko'plab o'zbek adiblari yaratgan badiiy asarlar lingvopoetikasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar nihoyatda salmoqli.

Yurtimizda lingvopoetika masalalari, garchi rus adabiyoti materiallari tahlili asosida bo'lsa-da, dastlab E.B. Magazanikning ismlar lingvopoetikasi tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsion ishida o'rtaga tashlangan. O'zbek tili materiallari tahliliga asoslangan lingvopoetik nazariyalar esa ilk bor taniqli olim N.Mahmudovning ilmiy maqolalarida yoritildi.

So'z sehrini teran his qiluvchi olim N.Mahmudovning qator maqolalarida badiiy so'zning lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi. Olim Oybek she'riyatidagi o'xshatishlar, A.Qahhorning ayrim hikoyalari, Shayxzodaning ba'zi asarlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib, o'zbek lingvopoetikasi yo'nalishining rivojiga hissa qo'shgan.

Yana bir taniqli olim A.Nurmonov ham lingvopoetika masalalariga munosabat bildirdi. Uning tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati masalasi tahlil qilingan qarashlari aks etgan jamoaviy monografiyada ta'kidlanishicha, "Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir". Darhaqiqat, tilning vazifalari xilma-xil, uning insonga hissiy ta'sir ko'rsatish vazifasi nafaqat adabiyotshunoslikka, balki lingvopoetika yo'nalishiga ham daxldor muammodir.

Olim mazkur kitobda til tizimining barcha sath birliklari badiiy-estetik funksiyaga egaligini qayd etib, ushbu sath birliklarining qanday vaziyatda badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan. Masalan, leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi (metafora, metonimiya va boshq.), mubolag'a, meyozi kabi hodisalar ta'sirchanlikni oshiradi va lingvopoetikaning o'rganish obyekti bo'la oladi. Sintaktik sathda esa gap bo'laklarining o'rinishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qilishi sababli lingvopoetikaning tahlil obyekti sanaladi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matndagi poetik ahamiyatli birliklar tahliliga qaratilgan lingvopoetik aspektdagi dastlabki dissertatsiyalar sifatida I.Mirzayev, G. Muhammadjonova, M.Yo'ldoshev, M.Yaqubbekovalarning tadqiqot ishlarini ko'rsatish mumkin. Bu ishlarda lingvopoetikaning eng muhim masalalari – badiiy matnni lingvopoetik aspektda tadqiq qilish metodologiyasi va metodlari, tahlil tamoyillari belgilab berildi, til birliklarining poetik xoslanishi,

badiiylikni hosil qilishdagi ahamiyati kabi masalalar o'rtaga tashlandi. Keyinchalik ushbu yo'nalishda yangidan yangi tadqiqot ishlari yuzaga keldi.

I.Mirzayevning she'riy matnning lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan ishi bu yo'nalishdagi dastlabki dissertatsion ish sifatida ahamiyatli. Unda turli shoirlar asarlari tahlili asosida she'riy matnda qo'llangan poetik jihatdan ahamiyatli til birliklarining lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi.

G. Muhammadjonovanning tadqiqot ishida o'tgan asrning 80-yillari oxiri

90-yillari boshlarida ijod qilgan o'zbek shoirlarining she'rlari lingvopoetik aspektda tadqiq etildi. M.Yaqubbekovanning dissertatsiyasida esa xalq qo'shiqlarida qo'llangan poetik ahamiyatli birliklar lingvopoetik aspektda tahlilga tortildi. Tadqiqotchi xalq qo'shiqlarida o'xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarining; metafora, metonimiya kabi ko'chim turlarining badiiylikni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Lingvopoetikaning nazariy masalalari, tadqiq tamoyillari atroflicha tahlil etilgan ishlardan biri M.Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" mavzusidagi dissertatsiyasidir. Ushbu tadqiqotda badiiy matnni lingvopoetik asosda tadqiq etishning eng muhim tamoyillari belgilab berildi.

Lingvopoetikaning dolzarb nazariy masalalari D.Jamoliddinova, D.Andaniyazova tadqiqotlarida ham yoritildi. Xususan, D.Jamoliddinovanning doktorlik dissertatsiyasida badiiy nutqda parantez birliklarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi. D.Andaniyazova esa badiiy matnda qo'llangan onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berdi.

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda muayyan adiblarning asarlarini lingvopoetik aspektda o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham amalga oshirildi. Jumladan, D.Shadiyevanning dissertatsiyasida Muhammad Yusuf she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari o'rganildi. Sh. Toshxo'jayeva shoir Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasini tadqiq qildi. G.Jumanazarovanning doktorlik dissertatsiyasida Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlarida foydalanilgan epitets, o'xshatish, metafora, metonimiya kabi badiiy tasvir vositalarining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilindi. S.Umirovanning dissertatsion ishida U.Azim she'rlarida qo'llangan lingvistik vositalarning poetik individuallik uchun xizmat qilishi masalasi yoritildi. Z.Muqimovanning tadqiqotida esa O'tkir Hoshimov asarlarining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari ochib berildi.

XULOSA

Tahlillardan anglashiladiki, o'zbek tilshunosligida lingvopoetik aspektda amalga oshirilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar ancha. Ularda o'zbek tilining badiiy nutqda namoyon bo'ladigan poetik ifoda imkoniyatlari chuqur o'rganilgan. Albatta, bu ishlar o'zbek lingvopoetikasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishiga shubha yo'q. Mazkur

tadqiqotlar kelgusida o'zbek tilshunosligida shu yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini bajara oladi.

Bugungi kunda lingvopoetika sohasida amalga oshirilgan ushbu ishlar qatorida o'ziga xos individual uslubiga ega taniqli shoir E.Shukur she'rlarining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – С. 23.
2. Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати / Танланган асарлар. 3 жилдди. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-жилд. – Б.163.
3. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 14.
4. Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – С.5.
5. Степанов М.С. Денотация и коннотация в поэтическом дискурсе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2007.
6. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 4.
7. Умирова С.М. Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърят мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.12. (– 48 б.)
8. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс... д-ра филол. наук. – М., 1992; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996; Калинин В.М. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Киев, 2000; Жаппар К.З. Эстетические функции имен собственных в поэзии О.Сулейменова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алмата, 2000; Гаррапова Г.Х. Поэтическая ономастика прозы Мухаммета Магдеева: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Казань: Казанск. гос. ун-т, 2000; Курбонмамадов С.Х. Семантико-стилистические особенности поэтонимии «Шахнаме» Абулқасима Фирдавси: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2014.

9. Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967; Shu muallif. Ономапоэтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978.

10. Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор хикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17.

11. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009.

12. Жамолиддинова Д. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.

13. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

14. Тошхужаева Ш. Эркин Абзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.

15. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2017.

16. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.